

VOLUME II | ISSUE 1 | JANUARY

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 1-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-1

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-1>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиев Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

OBIDOVA Madina Umarqulovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

Psixologiya yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10558919>

О‘SMIRLARDA XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIDA О‘ZI-O‘ZI ANGLASHNING NAZARIY ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘smirlarda xulq-atvor shakllanishida o‘zi-o‘zi anglashning nazariy asoslari va o‘zi-o‘zi anglash davrida juda ko‘p to‘siqlarga duch kelishi, bu davrda to‘siqlarni yengib o‘tishda ularda «koping» xulq-atvor shakllanishi hamda o‘smirlar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan turli qiyinchiliklarni osonlik bilan yenga olishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada unumli foydalana olishga, o‘zlari haqida yanada chuqur, ijobiy va o‘ziga xos tasavvurlarning shakllanishiga imkoniyat yaratishi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: koping xulq-atvor, stress, shaxs, jamiyat, erkinlik, majburiyat, ijtimoiy-iqtisodiy vazifa, Biologik, sosiologik, individual-psixologik ittifoq.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ САМОЦЕНЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретические основы самосознания в формировании поведения подростков и то, что они сталкиваются с множеством препятствий в период самосознания, при преодолении препятствий в этот период им приходится «справляться». Формирование поведения и, если подростки будут иметь достаточно информации о своих психологических возможностях, достижениях и недостатках в определенной области, это поможет им легко преодолевать различные трудности, встречающиеся в жизни, превосходить свои возможности. Поясняется, что это создает возможность их использования. продуктивно, формировать более глубокие, позитивные и уникальные представления о себе.

Ключевые слова: совладающее поведение, стресс, личность, общество, свобода, приверженность, социально-экономическая задача, биологический, социологический, индивидуально-психологический союз.

THEORETICAL BASICS OF SELF-CONCEPTION IN BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS

ANNOTATION

In this article, the theoretical foundations of self-awareness in the formation of behavior in adolescents and the fact that they face a lot of obstacles during the period of self-awareness, in overcoming obstacles during this period, they have "coping" behavior formation and if adolescents have enough information about their psychological capabilities, achievements and shortcomings in a certain area, it will help them to easily overcome various difficulties encountered in life, to exceed their capabilities. It is explained that it creates an opportunity to use it productively, to form more deep, positive and unique ideas about themselves.

Key words: coping behavior, stress, individual, society, freedom, commitment, socio-economic task, biological, sociological, individual-psychological union.

O'smirlarda xulq-atvor shakllanishida o'zi-o'zi anglash davrida juda ko'p to'siqlarga duch keladi. Bu davrda to'siqlarni engib o'tishda ularda «koping» xulq-atvor shakllanadi. Koping xulq-atvor muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'zini o'zi rivojlanira borishi ko'p jihatdan ushbu jarayonga bog'liq.

Jamiyat a'zolari o'zlarining ma'lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuq va kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan turli qiyinchiliklarni osonlik bilan yenga olishga, o'z imkoniyatlaridan yanada unumli foydalana olishga, o'zlari haqida yanada chuqur, ijobiy va o'ziga xos tasavvurlarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Psixologiyada koping xulq-atvor XX asrning 2 yarmida vujudga kelgan.

Koping xulq-atvor ingliz tilidan olingan bo'lib "cope, to cope" - yenga olish, bartaraf qilish degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu termini birinchi bo'lib L.Merfi 1962 yil bolalarda inqiroz davrida muammoni qanday qilib yengishni o'rganish vaqtida foydalangan. A.Maslau esa bu termini fanga kiritgan. Umuman olganda koping xulq-atvor individning hayotiy muammolarni yechishga tayyorgarligi bilan xarakterlanadi. U o'zida muammolarni yenga olish imkoniyatlaridan, vositalaridan foydalanishni namoyon etadi, bu esa stressli xulq-atvorni bartaraf etish bilan tavsiflanadi. Ko'pchilik xorijlik mutaxassislarining fikriga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, koping xulq-atvorning turli-tuman strategiya va uslublari mavjud bo'lib, insonlar ulardan hayotiy murakkab vaziyatlarga duch kelganlaridagina foydalanadilar [1].

Koping xulq-atvorning rang-barang ko'plab klassifikatsiyalari mavjud bo'lib, uni bir necha tadqiqot yo'nalishlariga ko'ra taxlil qilinadi. Ulardan bir nechalarini ko'rib chiqamiz. Koping uslublarini tadqiq etgan yetakchi mutaxassislaridan biri R.S.Lazarusning fikricha, koping strategiyalarining ikkita global tipi mavjud: (stressni bartaraf etish usuli) - muammoga mo'ljal olmoq, sub'ektiv mo'ljal olmoq. Muammoga mo'ljal oluvchi tip, qiyin vaziyatni rasional hal qilishga yo'nalgan bo'lib, ularning xulq-atvorida holatni mustaqil tahlil qilishga, boshqalardan yordam olishga, qo'shimcha manbalardan ma'lumot izlashga nisbatan moyillik kuzatiluvchi tipdir.

Insonni tadqiq qiluvchi ko'plab fanlar uni turli yo'nalishlarda o'rganib, o'zining ob'ekti sifatida nazariy asoslab kelmoqda. *Biologik* nuqtai nazardan o'zini o'zi idora qilish shaxs taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro'yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi. *Sosiologik* yondashuvda esa shaxsning madaniy-tarixiy muhit ta'sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli *individual-psixologik* yondashuv o'zini o'zi idora qilishni shaxsning rivojlanishi, uning tana tuzilishi yoki konstitusional jihatlari va asab tizimi tipining ta'siri borligini ta'kidlab, o'rganadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o'zini o'zi idora qilishini o'rganish *ijtimoiy-psixologik yondashuvni* talab qiladi. Ijtimoiylashuvning bevosita mahsuli sifatida shaxs ijtimoiy psixologik tizimini o'rab to'rgan ijtimoiy muhit ta'sirida o'rganadi.

Qadimiy boy merosimizning qimmatli manbalarini yuzaga olib chiqish, uni hozirgi zamon pedagogik-psixologik tafakkuri iste'moliga kiritishdan maqsad ajdodlarimizning insoniyat tafakkuri tarixi, uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-marifiy rivojlanishidagi o'rni bilib olish hamda yangi davr sharoitida barkamol shaxsni tarbiyalashda qo'llashdan iborat. Yaratilgan har bir risola, har bir ta'limiy-axloqiy asar o'ziga xos ta'lim va tarbiya jihatdan ma'lum qimmatga ega. Ushbu manbalarning tarbiyaviy imkoniyatlari va nomzodlarda o'zini o'zi idora qilishni rivojlantirishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir [2].

Insoniyat paydo bo'lganidan buyon to hozirgi kungacha insonni o'zi haqidagi masalalar qiziqtirib kelgan. Inson aslida kim ekanligi, qanday paydo bo'ganligi, qay tariqa yashaganligi va qay tartibda yashashlari kerak ekanligi va boshqa mavzular haqida turli xil tortishuvlar va savollar paydo bo'lgan. Merriyam-Vebster lug'atiga binoan, o'z o'zini anglash tushunchasi - «o'ziga tegishli bo'lgan va undan kelib chiqadigan harakatlar yoki holatlarni anglash» deb ta'riflanadi. O'z-o'zini anglashning psixologik xususiyatatlari ijtimoiy psixologiya fanida o'z-o'zini anglash, ahloqiy o'z-o'zini anglash ijtimoiy-ruhiy hodisa, jarayon sifatida alohida ilmiy nuqtai nazardan to'liq o'rganilmaganligi tufayli uni tahlil qilish ahloq, milliy xarakter, milliy ma'naviyat va qadriyat kategoriyalari bilan bevosita bog'liq ravishda amalga oshirilmogda. Ushbu kategoriyalarni o'ziga xos tarzda yoritish psixologiya fanining asosiy tushunchasi hisoblanmish shaxsni yaqqol anglash, uning guruh (jamo) dagi roli, shaxslararo munosabatdagi ahamiyatini o'rganish imkoniyatini yaratadi.

XX va XXI asr psixologiya fanida ushbu masalaning ijtimoiy - psixologik tabiatini tushuntirishda ikki xil qarash va yondashuv vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro bir - biridan keskin darajada tavofutlanib turadi. Shaxsda borliqning psixika shakliga tana a'zolarining faol va ilgari lab in'ikos etishi mazkur sinaluvchilarning xususiyatiga mos harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Shuningdek, psixikaning vaziyat ustuvorligi va ijtimoiy faolligi organizmning qismlari o'rtasida o'zaro bog'liq harakatini yuzaga keltiradi. Bu esa shaxsning hissiy-irodaviy hususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

O'zini o'zi idora qilish sharq mutaffakirlarining asarlarida ilmiy- nazariy tahlil qilinadi. Ushbu olimlarning asarlarini tahlil qilish barobarida nomzodlarda o'zini o'zi idrok qilishning shakllantirishni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xuddi shu boisdan insonning irodaviy-ruhiy holatlarini aniqlovchi asosiy belgilari mavjuddir. Bunda predmet muhiti obrazini aks ettiradi. Tana a'zolarini harakatlantirish, ularning mazkur muhitga moslashishi, u bilan munosabat o'rnatish ehtiyojidan qoniqishni anglatadi. To'g'ri yoki teskari munosabatga kirishish prinsipi bo'yicha namoyon bo'lish to'g'riligini nazorat qilish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning o'zini o'zi nazorat qilishda ijtimoiy amaliyot jarayoni xizmat qiladi. Zero, teskari aloqa yordamida harakat bilan obraz natijasini taqqoslash amalga oshiriladi. Taqqoslash natijasida vujudga keladigan holat bu natijadan oldinroq sodir bo'ladi. Unda borliqning o'ziga xos modeli sifatida namoyon bo'lish imkoniyati mavjut. Insonning barcha irodaviy harakatlari bevosita muloqotga kirishish jarayonida namoyon bo'ladi. Sababi sitimul bervchi omillar, ularning doirasidagi harakatlarni faoliyatga undovchi, xulq-atvor dasturi bajarilishini ta'minlash, unga qidiruv jarayoni va variantlar tanlashni o'zida qamrab oluvchi doimiy ravishda intiluvchi irodaviy aktivlik aks etadi.

Bizningcha, mazkur metodologik yondashuvlar muloxoza qilganda, albatta biosferik va neosferik komunikasiya natijalari, xolat, ularning ta'sirchanlik kuchi, muhit hodisalarning fazoviy joylashuvi, «sun'iy miya» ning vujudga kelishi imkoniyati yuzasidan muloxaza yuritish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga egadir. Sababi, payqash imkoniyatiga ega bo'lmagan borliqning mo'jizalari, inson aql-zakovatining quvvati etmaydigan, sirlari mavjuddir, uni hisobga olmasdan ilojimiz yo'q [3].

I.M.Sechenov tabiricha psixik hodisa yaxlit reflektor harakat sababli vujutgaga keladi. Uning mahsuli sifatida ta'sir o'tkazish ehtimoli mavjud kutilmadan xabardor qiluvchi omil vazifasini ham bajaradi. Ayni paytda ilgari lab ketuvchi bashorat vazifasini bajaradi. Ruxiy jarayonlar qanday ahamiyat kasb etishi mumkinligi hamda ularning o'rni xaqida ma'lumotga ega bo'lish uchun real asosni vujudga keltiradi.

Ruxiy jarayonlar organizmda boshqaruv (regulyativ) va signal funksiyasini ijro etadi. Xarakatni o'zgaruvchan shart-sharoitlarga moslashtiradi va ayni daqiqada yuqori samaraga erishish imkoniyatini beradi. Miyaning bo'lmalari (tarkibiy qismlari) funksiyasi tariqasida ruxiy jarayonni tashqi olam (borliq) to'g'risidagi axborotlarni qabul qilinishi, qayta ishlanishini, saqlanishi, o'zida mujassamlashtiruvchi javob faoliyatining idora qiluvchisi sifatida ijtimoiy-psixologik mexanizm hisoblanadi. Shuning uchun odamlarning borliq to'g'risidagi tasavvurlari, bilimlari insonning shaxsiy tajribalarining yig'indisi (majmuasi) reflektor harakat tarkibi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, muayyan darajadagi irodaviy harakatlar bevosita insonning tashqi va ichki olamida sodir bo'luvchi psixik hodisalar bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur metodologik ta'limotga asoslanib, I.M.Sechenov faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi va psixikaning reflektorligi ta'limotini asosladi. Bu g'oya esa I.P.Pavlov (1849-1936 y.y.) tomonidan tajrivada o'z tasdig'ini topdi. Xususiy holatlarda keng ko'lamda namoyon bo'ldi. I.P.Pavlov ham hayvonlarning, ham odamlarning tashqi borliq bilan o'zaro harakati miya orqali boshqarilishi qonuniyatini ochgan edi. Ushbu olimning qonuniyatlarga taluqli yondashuvlari yig'indisi birinchi (ko'rish, eshitish signallar) va ikkinchi (nutq yani kommunikasya) signallar tizimi haqidagi nazariya tariqasida fanda muhim mavqeiga ega.

Muammo bo'yicha olib borilgan metodologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir vaziyatning mazmunini tushuntirib berish albatta uning alohida sifatlarini ajratib o'tish, xususiyatlarini tahlil qilish lozim bo'ladi [4].

Shunga muvofiq, o'zini o'zi idora qilish muammosi - shaxsning ruhiy hamda jismoniy faoliyatini anglab etgan holda boshqarib turishidan iborat tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasini ko'rsatadi. Bu shaxsning ichki psixik holatini muvofiq tarzda birxilligini doimiy ravishda ta'minlab turuvchi tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Yanada aniqroq qilib aytganda, o'z o'zini nazoratda ushlab biologik tuzilmalar harakatini tartibga solish darajalaridan biri hisoblanadi.

Bu shu bilan xarakterlanadiki, voqelikni aks ettirish va modellashtirishning o'ziga hos ijtimoiy-psixologik mexanizmlaridan foydalanishni aks ettiradi. Demak, odamning o'zini o'zi idora qilishi sub'ektning xatti-harakatlari yoki faoliyatini idora qilish va uning hozirgi holatida o'zini o'zi tartibga solishni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu hodisa olimlar tomonidan o'ziga hos ilmiy-metodologik tamoyillar asosida talqin qilinadi. Jumladan, L.P.Rimak, V.M.Zvonikov, A.I.Skripniklar psixik holatga o'zini o'zi idora qilishga yo'naltirilgan organizmning har tomonlama faoliyatini, reaksiyalarini, uning jarayonlarini va holatlarini maqsadli tartibga solish uchun bajariladigan harakat sifatida ta'rif bergan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zini o'zi idora qilish, boshqarish va takomillashtirish, qo'lga olish, buyruk berish, tarbiyalash bo'yicha bugungi kunda jahonda psixologiyasi fanida boy materiallar to'plangan bo'lib, bu o'z navbatida insonning maqsadi, munosabati, kechinmalari, holati o'zgarishi va yangidan tuzilishi hakida ilmiy-nazariy ma'lumotlar beradi. Ayni paytda psixologiya insonning ruhiy holatini o'rganish, shakllantirish, takomillashtirish, rivojlantirish, yangi sifat bosqichiga o'tish, yangi sharoitga ko'chirish dinamikasini ta'minlash imkoniyati borligi bilan o'ziga xos amaliy va tatbiqiy fanga aylanib borayotganligini qayd etish mumkin.

Umuman, o'zini o'zi idora qilish muammosi hozirgi zamon intellektual jarayonlar, emosional kechinmalar, obrazlarning o'ziga xos jixatlari hamda tasavvurlarning majmuasida o'z ifodasini topmoqda. Bu esa o'zining ijtimoiy-psixologik talablariga va tamoyillariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

IQTIBOSLAR. СНОККИ. REFERENCES.

1. Grimak L.P., Zvonikov V.M., Skripnikov A.I. Psixicheskaya samoregulyasiya v deyatelnosti cheloveka-operatora // Voprosy kibernetiki. Psixicheskiye sostoyaniya i effektivnost deyatelnosti / Pod red. Yu. M. Zabrodina. - M.: Izd-vo AN, Nauchnyy sovet po kompleksnoy probleme «Kibernetika», 1993.
2. Morosanova V.I. Samoregulyasiya i individualnost cheloveka / In-t psixologii RAN; Psixologicheskiy in-t RAO. — M.: Nauka, 2010. — С. 8.
3. Qodirov O.S. “O’smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.2020-155 b.
4. Safarovich Q.O. et al. O’QUVCHILAR XULQ-ATVORI PROFILAKTIKASIDA MAQSADGA YO’NALTIRILGAN TARBIYAVIY TA’SIR MODELI //PEDAGOG. - 2023. - T. 6. - №. 2. - С. 382-386.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 1-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-1

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-1

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz